

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna

SOVET DAVRIDA KITOV TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA
AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboyevna

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA TEXNIK SALOHİYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салохиддин Исматович

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ..... 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich

YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR
DINAMIKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon

FRENSIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

Usmonov Farkhod Lapasovich

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION 102-109

*Atakulov Mavlonbek Saitkulovich*YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI 110-115**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Amanov Abdijabbor Sattarovich*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI 116-121

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI 122-125

*Hayitova Shohida Erkin qizi*KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR
TASNIFI 126-132*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna*

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL 133-138

Aripova Aziza Xasanovna

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI 139-143

*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) 144-148*Axmedova Aziza Komilovna*

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI 149-153

Зокирова Шахзода Нодиржон қизи

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ 154-158

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE 159-163

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI..... 164-169

Negmatova Mumtozbeqim

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR 170-174

*Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi*O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN
LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TAHLILI 175-178**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ismaylov Raxat Aminbayevich*NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI 179-183*Сеитниязов Камарбек Парахатович*ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич

ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА
НАЗОРАТИ 192-198

Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING

HUQUQIY ASOSLARI 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли

ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ

АСОСЛАРИ 211-218

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'P
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI 219-222

Rabbimova Nodira Tashtemirovna

FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING

PEDAGOGICAL APPROACHES 223-227

Саидова Камола Усканбаевна

КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
МЫСЛИ 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ

ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ 240-245

Buronova Iroda

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI

RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 246-250

Matyakubova Feruza Egamovna

ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND

MODERN EDUCATION 251-254

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 10 September 2024
Accepted: 15 September 2024
Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF FAMILY CEREMONIES OF THE UZBEK PEOPLE

Umurkulov Kamoliddin

Scientific researcher of the Department of World History, Termiz State University

Abstract. The purpose of the research: In this article, the religious and educational views, rituals, customs and traditions related to the birth of a child and family ceremonies, which have existed in Uzbek families since ancient times, are ethnographically analyzed. Uzbek peoples have been distinguished by the variety and diversity of their family traditions and ceremonies since ancient times. Family traditions and ceremonies related to the upbringing of children of the Uzbek people are especially important. There is a wise saying in our people: "Start raising a child before he is born. "That is why our ancestors started raising a child by choosing parents for him. Today, it is considered as "obsolete", but it is one of the urgent issues to shed light on these customs and ceremonies, which are part of our nation's culture, and their educational significance. The essence of the family rituals of the Uzbek people is that these rituals serve the strength of family relationships and the perfection of children's education. According to their origins, these rituals go back to long historical periods. Today, these traditions and rituals are losing their importance as a result of transformational processes, and modern traditions are taking their place.

Key words: Holy Qur'an, hadith, seven generations, "breaking of bread" ceremony, dowry, share rights, national education.

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Umurkulov Kamoliddin

Termiz davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası ilmiy tadqiqotchisi

Anotatsiya. Tadqiqotning maqsadi: Ushbu maqolada o'zbek oilalarida qadimdan mavjud bo'lib kelayotgan farzand tug'ilishi va oilaviy marosimlari bilan bog'liq diniy-tarbiyaviy qarashlar, marosimlar, urf-odat va an'analar etnografik tahlil etilgan. O'zbek xalqlari azaldan o'zining oilaviy an'ana va marosimlarining turli xil ekanligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zbek xalqining farzandlar tarbiyasi bilan bog'liq oilaviy urf-odat va marosimlari nihoyatda ahamiyatlidir. Xalqimizda "Bola tarbiyasini hali u tug'ilmasdan oldin boshla" degan hikmatli so'z mavjud. Shu sababli ham ota-bobolarimiz farzand tarbiyasini unga ota-ona tanlashdanoq boshlashgan. Bugungi kunda "eskilik" sifatida qaralayotgan aslida esa, xalqimiz madaniyating bir qismi bo'lgan bu urf-odat va marosimlarni va ularning tarbiyaviy ahamiyatini yoritib berish dolzarb masalalardandir. O'zbek xalqining oilaviy marosimlarining tub mohiyati shuki, bu marosimlar oilaviy munosabatlarning mustahkamligiga va farzandlar tarbiyasining kamolotiga xizmat qilib kelgan. Ushbu marosimlar o'zining kelib chiqishiga ko'ra uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Bugungi kunga kelib esa bu urf-odat va marosimlar transformatsion jarayonlar natijasida o'zgarib o'zining ahamiyatini yo'qotib bormoqda va ularning o'rnini zamonaviy udumlar egallamoqda.

Tayanch so'zlar: Qur'oni karim, hadis, yetti avlod, "non sindirish" marosimi, mahr, shir haqqi, milliy tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N01>

Kirish. Taniqli jadid ma’rifatparvarimiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikrlari o’sha davr uchun qanchalik ahamiyatli va dolzarb bo’lsa bugungi kunda ham o’z ahamiyati zarracha yo’qotgani yoq. Aksincha, bugungi globallashayotgan dunyoda madaniyatlar uyg’unlashib milliy madaniyatlar, etnik o’zigaxoslik yoq bo’lib ketayotgan bir davrda bu so’zlarning ahamiyati yana ham ortmoqda. Bu globalizatsion jarayonlardan hech bir xalq chetda qola olmaydi, bu jarayonlardan qochib yoki berkinib qutilib qolish imkonsiz. Aksincha, bugungi yoshlar ongini tezda egallab ularni faqat o’zini sevishga, hayotdan shunchaki lazzatlanib yashab qolishga o’rgatuvchi bu ommaaviy madaniyatning salbiy jihatlariga qarshi yosh avlod ongida qadimdan ota-bobolarimizda meros bo’lib kelayotgan milliy madaniyatimiz, urf-odat, ana’analarimiz haqida tassavur shakillantirish va ularga hurmat ruhida tarbiyalash orqali kurashishimiz davr talabi bo’lib qolmoqda. [1] Zeroki, yosh avlod yurt kelajagidir, yurt kelajagini esa shu yurtni sevishga, ota-bobolarining merosini asrab avaylashga o’rgatish bugungi katta avlodning vazifasidir. Vatanni sevishga o’rgatish esa shu yurtning tarixini o’rgatish va uni sevdish orqali amalga oshiriladi. Darhaqiqat, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Tarixiy xotirasiz kelajak yoq”. Shunday ekan yosh avlod tarbiyasida ota-bobolar o’giti, pand-nasihati, an’anaviy xalq pedagogikasining o’rni beqiyosdir. [2]

Tadqiqot metodi va metodologiyasi. Xalqimizda farzand tarbiyasini unga ona tanlashdan boshla degan hikmatli gap bor. Dinimizda oila qurish juda savobli ish sifatida ko’p targ’ib etilgan. Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) “Uylaning va farzandlar ko’ring, zeroki, men qiyomatda ummatimning koppligi bilan faxrlanay” (Imom Buxoriy rivoyati) deb vasiyat qilganlar. [3] Azaldan dono xalqimiz kelin tanlashda bo’lajak farzandlar sog’ligi tarbiyasi haqida qayg’urib har tomonlama sog’lom, yetuk, baquvvat, nasl- nasabi yaxshi bo’lgan qizni kelin qilishga harakat qilishgan. Asosan bo’lajak kelinni kuyovning onasi, opalari, amma va xolalari izlashgan. An’anaga ko’ra kelin haqida surushtirishda dastlab ikki yon qo’shnisi va kelinning yangasidan surishtirish samarali deb hisoblangan. Sababi, aynan shu shaxslar kelin haqida haqiqiy ma’lumot beradi deb bilishgan. Qadimgi davrlarda hali bir birlari uchun nomahram bo’lgan kelin va kuyov o’zaro ko’rishishlari mumkin bo’lmagan. Chunki bu shariat talabi hisoblangan va bu jarayon xalqimiz orasida XX asr boshlariga qadar saqlanib kelgan odat bo’lgan. [4] Shu sababli bo’lajak kuyov kelinni o’zini emas uning otasi yoki aka-ukalarini ko’rgan. Sababi xalqimizda “O’g’il farzand tog’aga tortadi” degan hikmatli gap bor va kuyov bo’lmish yigit ham bo’lajak farzandlari kimga o’xshagan bo’lishini shu orqali tasavvur qilib olgan. Shuningdek, kelinning nasl-nasabi ya’ni “yetti avlodi” obdon surishtirilgan va avlodida har xil irsiy kasalliklar bor yoki yoqligi aniqlangan. Bundan tashqari kelin tanlashdagi taqiqilardan biri bo’lajak kelin yaqin qarindosh bo’lmasigi kerak bo’lgan. Tog’a, amaki, amma va xolalarning qizlarini iloj borishcha kelin qilishmagan. Chunki, yaqin qarindoshlar o’rtasidagi nikoh keyinchali farzandlarda irsiy kamchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bu haqda Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimning Niso surasi, 23-oyatida robbimiz “ Sizlarga nikohi harom qilingan ayollar bular- onalaringiz, qizlarinigiz, opa-singillaringiz, ammalaringiz, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, emizgan onangiz, emishgan opa-singillaringiz, qaynonangiz, o’g’illaringizning xotinlaridir. Ikki opa-singilni qo’shib nikohlab olish ham harom qilindi” [5] deya marhamat qilgan. Shu sababli, ota-bobolarimiz kelinning yaqin qarindosh emas begona bo’lishiga alohida e’tibor berishgan. Shu va shunga o’xshash boshqa omillar sovchilik va u bilan bog’liq marosimlarning asosini tashkil

etgan. Sovchilik marosimlari [6] nihoyasiga yetib ikki tomon va kelin-kuyov o'zaro ahdlashgandan keyin to'ygacha va to'y marosimlarida ham birqancha urf-odatlar ado etilgan va bu urf-odatlarning aksariyati bo'lajak oila va tug'iladigan farzandlarning so'lom bo'lishi uchun amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijasi. Har bir xalqning azaldan o'z ajdod va avlodlaridan meros bo'lib kelayotgan urf-odat, an'analari bu aslida o'sha xalqning o'ta qiymatli va qimmatli boyligidur. Chunki, qaysiki an'ana, odat asrlar davomida mavjud bo'lib kelayaptimi, demak, bu an'analar o'sha xalqning turmishi, xo'jalik hayoti va xalq pedagogikasi uchun nihoyatda samarali bir usul yoki vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Shunday ekan biz uchun ham o'tmishdan ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan bu marosim va odatlar nafaqat bir udum yoki an'ana balki ota-bobolarimizning yuksak ma'naviy merosi, ularning turmush tajribalari orqali orttirilgan va yillar sinovidan o'tgan milliy boyligimizdur. Shuni ham tan olib aytish kerakki hozirgi yosh avlod tarbiyasida milliylikdan ko'ra koproq zamonaviylik unsurlari ustunlik qilmoqda. Zamonga qarab kiyinish, zamonga qarab yashash, kasb tanlash urf-odatlarni bajarish barchasida zamonaviylik degan nom ostidagi xalqimizga, milliy tarbiya xususiyatlarimizga yod g'oyalar urchib ketdi. Afsuski, bu unsurlar farzandlarimizni tarbiyasida salbiy tasirini o'tkazmasdan qolmayapti. Ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida eng birinchilardan bo'lib ahamiyat bergan tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, or-nomus, ibo-hayo kabi tarbiyaning ustunlarini bugun biz farzandlarimizga o'rgata olmayapmiz. Buning o'rniga esa farzand tug'ilgandan uni dabdaba bilan tug'riqxonadan chiqarish, dabdabali to'ylar (ayniqsa zamonaviy to'ylardagi kuyov salom, love story, fotosessiya kabi keraksiz va tobora urfga aylanib borayotgan jarayonlar), tug'ilgan kunlar, har xil boshqa yot marosimlar orqali farzandlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir etmoqdamiz. Bu jarayonlar shuni ko'rsatadiki bugungi kunda nafaqat yoshlar balki aksariyat kata avlod vakillarida ham milliy-etnik madaniyatimiz yetarlicha shakillanmagan.

Muhokama. Biz katta avlod vakillari sifatida shu narsaga olohada e'tibor berishimiz kerakki, bugun biz bajarayotgan harbir hatti-harakatdan ertaga farzandlarimiz o'ziga yetarlicha xulosa chiqarib oladi. Dono xalqimiz "Farzandingni emas o'zingni tarbiya qil, chunki, farzanding sen kabi bo'ladi", "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Olmaning tagiga olma tushadi" kabi hikmatli so'z va maqollarini bejizga aytishmagan. Yoshlarga amallarimiz bilan tarbiya berishga harakt qilarkanmiz ularga ko'proq milliy urf-odat va an'alarimizni o'rganish orqali tarbiya berish ijobiydir. Chunki, xalqimiz orasida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir beraoladigan ko'plab urf-odat va marosimlarimiz mavjud. Keling ba'zi marosimlarimizning tarbiyaviy jihatlarini ko'rib chiqamiz. [7] Masalan, non sindirish marosimi o'zaro, bu marosimda ramziy belgi bo'lgan noni qizni tog'asi sindirgan va o'sha sindirilgan noning bo'laklarini kelin va kuyov yeyishgan, shuningdek umrlari uzoq bo'lishi uchun yoshi ulug'lar va sefarzand bo'lishlari uchun bolalarga ham berilgan. Nikoh jarayonida esa asosiy e'tibor beriladigan jihat bu kelinning haqi hisoblangan mahr pulini berish bo'lgan. Mahr bu nikoh o'qilayotgan vaqtda kuyovning kelin uchun, kelinni o'z oilasidan, ota-onasidan kechib bundan buyon kuyovning xonadonida yashashi uchun, o'z ixtiyorini kuyovga bag'ishlaganing ramzi sifatida kelingan beriladigan haq hisoblanadi. [8] Dinimizda ham mahr masalasiga alohida e'tibor berilgan va mahr kuyovning zimmasidagi ado etilishi shart bo'lgan vazifalardan biri hisoblangan. Xususan, muqaddas Qur'oni Karimning Niso surasi 4-oyatida robimiz "Xotinlaringizning mahrini mamnunlik bilan beringiz! Agar o'zlari undan biror narsani mamnunlik bilan kechsa sizlar uni bemalol, ishtaxa

bilan tanovul qilayveringiz” [9] deya marhamat qilgan. Shuningdek to’ydан oldingi marosimlardan yana biri qalin bichish marosimi hisoblanadi. Bu marosimda kelin va kuyov tomonidan vakillar ishtirok etadi va kuyovning kelin tomoniga beradigan moddiy haqlari o’zaro kelishib olinadi. Bu marosimning eng muhim qismlaridan biri bu “sut puli” yoki “shir haqqi” bo’lib, u kelinni voyaga yetkazgan onasiga beriladigan moddiy haq hisoblanadi. Bir jihatga alohida etibor qaratish kerakki, bu marosimlarning barchasi o’zining tarbiyaviy asosiga egadir. Xususan, yuqoridagi barcha urf-odatlar orqali kuyovning kelinga nisbatan moddiy javobgarligi ya’ni oilaning moddiy ustuni erkak ekanligi yoshlar ongiga uqtirilgan, shuningdek tug’ilajak farzandlarning tarbiyasiga mas’uliyat hissini oshirganlar. Shu va shunga o’xsshash ko’plab urf-odatlar va marosimlar orqali xalqimiz farzand tarbiyasiga hali u tug’ilmasidan turib alohida e’tibor berishgan.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan barcha marosimlar o’zining diniy-etnik asosiga ega bo’lib qadimdan xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismi bo’lib kelgan. Aynan shu an’analar orqali ota-bobolarimizning farzandlar tarbiyasiga bo’lgan e’tiborini ko’rishimiz mumkin. Milliy o’zligimizning ajralmas qismi bo’lgan bu an’analarni, urf-odat, marosimlarni asrab uni kelajak avlodga yetkazish va shu orqali millatning o’zligini saqlab qolish esa bugungi kun uchun dolzarb ahamiyatga ega desak hatto bolmaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. MUSINOVA NOZIRA MIRJADJANOVNA, "OILADA BOLA SHAXSINI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING TA’SIRI VA IJTIMOYIY PSIXOLOGIK TAVSIFI," JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN,, vol. 2, no. 1, p. 356–364, 2024.
2. Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi, "XALQ PEDAGOGIKASINING AXLOQIY TARBIYALASH ISHLARIDAGI AHAMIYATI," GOLDEN BRAIN, vol. 1, no. 28, p. 121–125, 2023.
3. Iskandarova Dinora Khudargan kizi, Pirnazarova Manzura Matnazarovna,, "«THE ROLE OF FAMILY VIEWS IN "HUMAN PROPERTY" TODAY,»," SCHOLAR, vol. 2, no. 1, p. 176–179, 2023.
4. Saydamov S, "TRACE OF ANCIENT RELIGION IN FAMILY TRADITIONS AND CEREMONIES.\\," Science and Innovation, vol. 1, no. 2, pp. 117-120, 2023.
5. Shayx Abdullaziz Mansur, Qur’oni karim,, Tashkent: Movorounnahr, 2020.
6. Karimova S, Xolmatova M, , "O ‘ZBEKISTONDA TO ‘Y AN’ANALARI TARIXI VA BUGUNI," GOLDEN BRAIN, vol. 1, no. 15, pp. 331-334, 2023.
7. Dushatova Shoxsanam, To’lqinboyeva Dinoraxon,, "MILLIY URF-ODATLAR," PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS, 2023.
8. Sharofovna B. R, "Islomda ayollar o ‘rni va munosabat," JOURNAL OF THEORY, MATHEMATICS AND PHYSICS, vol. 3, no. 1, pp. 136-143, 2024.
9. Shayx Abdullaziz Mansur, Qur’oni karim, Tashkent: Movorounnahr, 2020.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).